



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA RIVOJLANTIRUVCHI HAMDA DIDAKTIK O'YINLARNI QO'LLASH

Abdrimova S.S.

Urganch davlat pedagogika instituti ta'labasi

Tayanch soʻzlar: boshlang'ich ta'lim, o'yin, didaktik o'yin, o'quvchi, tarbiya.

Ключевые слова: начальное образование, игра, дидактическая игра, ученик, образование.

Key words: primary education, game, didactic game, student, education.

Ma'lumki, o'yin boshlang'ich ta'lim yoshidagi o'quvchilarning asosiy faoliyat turi bo'lib, o'yin o'quvchi shaxsini shakllantirishi, o'quv, mehnat faoliyatini, kishilar, tengdoshlari bilan munosabatlarini tarbiyalovchi asosiy omildir. Shu bois o'yin qadim zamonlardan buyon tarbiya metodi bo'lib kelgan. Chunki o'yin o'quvchilarning o'quvchilarning mustaqil faoliyati bo'lib, o'quvchilar faoliyati hayotini tashkil etishning shaklidir. Shu bois boshlang'ich ta'limda o'yin tarbiya vositasi bo'lishi bilan birga o'quvchilarga ta'lim—tarbiya berish metodi bo'lib hisoblanadi.

Yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish jismonan sog'lom, baquvvat qilib tarbiyalash, ularning jismoniy, aqliy rivojlanishini, tafakkurini o'stirish vositalaridan biri rivojlantiruvchi o'yinlardir. Ya'ni rivojlantiruvchi o'yinlar o'quvchilarni jismonan chiniqtirish rivojlantirish bilan birga so'z, mazmun, ohang kabilarga ega bo'ladi, badiiy so'zni o'rgatadi.

Rivojlantiruvchi o'yinlar o'quvchi shaxsining har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi.

O'yinda o'quvchilar rivojlanishiga doir talab va ehtiyojlar qoniqtiriladi, hayotiy faollik, birdamlik va tetiklik, aql, idrok shakllanadi. Chunki o'yin mustaqil faoliyat bo'lib, o'quvchilar o'yinda o'z qobiliyatlari, birgalikda o'ynash, ahil va do'stona munosabatda bo'lish, do'stlik, o'rtoqlik munosabatlarini shakllantiradi.

Shu bois o'yin rivojlantiruvchi vosita hisoblanadi. O'yin mazmuni ta'lim – tarbiya beruvchi, o'quvchilar tasavvurlarini ifodalovchi, xarakatlarnig faol



bo'lishi o'yin ijodiy, o'quvchilar nutqi, tafakkuri, nutq odobini rivojlantirish aks ettiradi.

Ayniqsa ijodiy o'yinlar, rasm-syujetli o'yinlar, harakatli o'yinlar, o'quvchilarni rivojlantiruvchi o'yinlar hisoblanadi. Ya'ni o'yinda o'quvchilarning darslarda olgan bilim va ko'nikmalari rivojlanadi. Masalan, o'quvchilar lug'atini boyitish, xotirasi va hozirjavobligini tarbiyalashga doir "O'xshaydi – o'xshaydi", "Zarurini tanla", "Ortiqcha so'zni top", "To'g'ri ayt", "Tez va to'g'ri fikrla" kabi o'yin mashqlar ni misol qilishimiz mumkin.

O'g'il va qiz o'quvchilarning xulq – atvori, tasavvurini rivojlantiruvchi o'yinlar muhimdir. Masalan, boshlang'ich sinfda "Nima etishmaydi?" didaktik o'yinida o'quvchilar 2 – 3 guruhga bo'linadilar. O'qituvchi stol ustiga bir nechta qo'g'irchoqlarni qo'yadi va o'quvchilarga Ra'no ismli qo'g'irchoqqa bahorgi, Kamila ismli qo'g'irchoqqa yozgi kiyim, Bahrom ismli qo'g'irchoqqa kuzgi, Botir ismli qo'g'irchoqqa qishgi kiyimlarni kiydirishni aytadi.

O'quvchilarning bir guruhi qo'g'irchoqlarni kiyintiradi, boshqa guruh ular faoliyatini kuzatadi. Ammo har bir qo'g'irchoq kiyimlaridan bittadan qutichada qoldiriladi. O'quvchilar qo'g'irchoqlarning kiyimlari, nomlari, kiyintirish jarayonidagi ishlar haqida so'zlab beradilar. "Kimga nima etishmaydi?" savoliga javob topadilar. Jumladan, bahorgi kiyimlarni kiygan Ra'no kamzul etishmaydi, yozgi kiyim kiygan qo'g'irchoqda paypoq ortiqcha, Akmalga kastyum, Botirga qo'lqop etishmaydi kabi javoblar beradilar, etishmagan kiyimlarni topib kiydiradilar.

Darsning ikkinchi yarmida qo'g'irchoqlarga kiyim kiydirish jarayonini eslab kiyimlarning nomi, kiyimlarning tartibini tushuntiradilar. Ushbu o'yinlar o'quvchilarning esdab qolish tafakkurini rivojlantiradi, aqliy faoliyatini, madaniy kiyinish malakalarini shakllantiradi, so'z boyligini, bog'lanishli nutqini o'stiradi.

Fikrlashni rivojlantiruvchi o'yinlarning ikkinchi turi amaliy intellektni rivojlantiruvchi o'yinlar bo'lib, ushbu o'yinlar o'quvchilarning o'yin faoliyatini rivojlantirish o'yinida o'zaro faollik ko'rsatish, ijodiy mustaqil fikrlashni, o'yinda faol qatnashishi imkonini beradi ya'ni o'quvchilar o'yin uchun mavzu tanlash, o'yinda faollik ko'rsatish, o'yin maqsadini aniq belgilash, ro'llarni taqsimlash, o'yin qoidalariga rioya qilishni talab qiladi. Shuningdek o'yin uchun kerakli materiallarni tanlay bilish, uni tayyorlashga doir ayrim mehnat ko'nikmalarini masalan, o'z – o'ziga xizmat qilish, o'yinchoqlarni uzatish, mahkamlash, dasturxon tuzash kabi amaliy intellektni rivojlantiruvchi o'yinlar muhimdir.

Masalan, "Kim tez javob beradi?", "Nima ortiqcha", "Topshiriq", "So'zni davom ettir", "Gapning davomini ayt" kabi tafakkurni rivojlantiruvchi o'yinlarni tashkil etish ahamiyatga egadir. Shuni ham aytish mumkinki, rivojlantiruvchi



o‘yinlar nutq o‘stirishning barcha bo‘limlar materiallarini o‘rganishda rivojlantiruvchi o‘yinlarning ahamiyati katta, chunki nutq o‘stirish vazifalari hilma – hil bo‘lib, xar bir b o‘lim materialini o‘yin orqali o‘rgatish o‘ziga hos xususiyatiga ega.

1. o‘quvchilar so‘z boyligini oshirishda “Kim ko‘p so‘z aytadi?”, “Nimaning ovozi?”, “Nima o‘zgardi?”, “Bu kimning ovozi?” kabi o‘yinlar o‘quvchilarning xotirlash, eshitish, tinglash faoliyatini oshirish, tafakkurini rivojlantiradi.

2. “Zarurini tanla”, “O‘xshaydi – o‘xshamaydi” kabi o‘yinlarda o‘quvchilar o‘qituvchi aytgan so‘zga mos so‘zni topishini talab etadi yoki nutq uchun so‘z tanlash malakasini oshiradi. O‘quvchilar bilan olib borilgan o‘yinlardan namunalar keltiramiz.

a) “Zarurini tanla” o‘yinida o‘quvchilar faoliyatida uchraydigan, nutq uchun zarur bo‘lgan so‘zlarni tanlashi talab etiladi. Masalan, o‘qituvchi ikkita bir – biriga o‘xshash so‘zni yoki biri o‘xshamaydigan so‘zni aytadi, o‘quvchilar zaruru so‘zni tanlaydilar.

–yoz – qor, o‘quvchilar yozda qor bo‘lmasligini tushunib yoz so‘zini tanlaydi,
–bo‘ri, –it; - bo‘ri itga o‘xshaydi, ammo bo‘ri o‘quvchilar bilan o‘ynamaydi.

U – yirtqich, shu bois o‘quvchilar it so‘zini tanlaydilar va h.

–choynak filga o‘xshaydi, ammo choy ichish uchun choynak zarurligini farqlaydi va shu so‘zni tanlaydi: –chumoli o‘zinig tinib – tinchimasligi bilan odamga o‘xshaydi, ammo odam bajargan ishni bajara olmaydi. O‘quvchilar eng foydali harakat qiluvchi odam so‘zini tanlaydilar.

Bunday o‘yinlar o‘quvchilarning o‘yin imkoniyatini kengaytiradi, o‘z faoliyati mazmunini boyitish, nutqni egallash, tasviriy, ijodiy fikrlash malakalarini oshiradi.

Shuni takidlash joizki o‘yin boshlang‘ich ta‘lim davrida asosiy faoliyat bo‘lib u o‘quvchi shaxsini, uning qiziqishlarini, tevarak—atrof haqidagi tasavvurlarini, nutqining rivojlanishini ta‘minlaydi. Ya‘ni o‘yinda o‘quvchilar jismoniy tomondan rivojlanadi, ularda faollik ortib boradi. Shuningdek o‘yin darslarda qo‘llanilishi tufayli o‘quvchilar tafakkurini, hayoli, diqqatini rivojlantiradi, o‘quvchilarning ijodiy nutqini o‘stiradi. Shuning uchun ham o‘yin nutq o‘stirish metodi bo‘lib, tevarak—atrofdagi narsa, buyumlar, voqea—xodisalar haqidagi bilimlar o‘yin orqali o‘quvchilarga o‘rgatiladi. Bu esa o‘quvchining yosh xususiyatiga mos bo‘lishi, qiziqarli bo‘lishi, aqliy faoliyatini oshirishga hizmat qilishi lozim. Shuning uchun ham o‘yin mustaqil faoliyat bo‘lib, o‘yinda o‘quvchilar o‘z tengdoshlari bilan o‘ynaydilar, tearak—atrofdagi hayotni, kishilar faoliyatini, ularning o‘zaro munosabatini aks ettiradilar, o‘yinning ijodkori o‘quvchilar hisoblanadi. Ya‘ni o‘quvchilar o‘z ixtiyorlari bilan o‘yinni turlichcha tashkil etadilar.



Masalan, ijodiy o‘yinlarda o‘quvchilar o‘z taffakuri bilan yangi o‘yin yaratishi mumkin yoki biror buyumni, o‘yinchoqni yasash, uycha qurish kabi faoliyatni bajaradilar, o‘quvchilarda aql—idrok hayol orqali yaratuvchanlik faoliyati ijodi, o‘zaro fikrlashi, maslahat qilishi, bir fikrni qo‘llab quvvatlashi kabi nutqiy faoliyat shakllanadi, o‘zaro munosabat, ahillik, bir maqsad sari intilish o‘zaro boradi, ularda bir-birini fikrini tahlil qilish kabi do‘stona munosabat shakllanadi. Shuningdek, o‘yinda o‘quvchilar, so‘z, nutq o‘zaro bog‘liq holda ishtirok etiladi, o‘quvchilar nutq o‘yin obrazlari, qatnashuvchilar bilan fikr almashinadi. Shuning uchun ham o‘yinda obrazlar xarakati ijrolari nutqi bilan bog‘liq bo‘ladi. O‘yin bir necha xil bo‘ladi. Masalan, maishiy turmushga doir, mehnatga doir o‘yinlar, syujetli—rolli o‘yinlar o‘quvchilar bog‘chalarida qo‘llaniladi. O‘yin mazmunio‘quvchilarning o‘zlari o‘ylab topadilar. Demak o‘yin mustaqil faoliyat bo‘lib, o‘yinda o‘quvchilar har xil kasbdagi kishilar, faoliyatini, halqimizning mehnatga bo‘lgan munosabatini, qobiliyatini yuzaga keltiradi. Shuningdek o‘yinlarda o‘quvchilar turli kasb egalarining obrazi nutqini takrorlaydi. Shuning uchun ham o‘yinda o‘quvchi o‘zi bajarayotgan har bir faoliyatini tushunib etishi, o‘yin mazmunini tanlay bilishi, o‘yinga qiziqishi bilan birga o‘yin mazmunini boyitishi, o‘yinni jamoa bilan o‘ynashi lozim. Bu esa o‘quvchilarda o‘zaro hamkorlik, jamoa bo‘lib o‘ynash o‘yinda bir-birini tushunish, qo‘llash masalalari ortadi, o‘yinga qiziqishi kuchayadi. Bunda o‘quvchilarda o‘yin orqali ahililik, do‘stlik, hamjihatlik bilan birga o‘yinda bir-birini qo‘llab-quvvatlash, o‘zaro muloqot, fikrlashish kabi nutqiy faoliyat shakllanadi.

Jumladan didaktik o‘yin boshlang‘ich ta‘limda ta‘lim-tarbiya vositasi sifatida keng qo‘llanadi, eng qulay ta‘limiy o‘yin hisoblanadi.

Didaktik o‘yin o‘quvchilarning birgalikda o‘ynashi, bir-birini qo‘llab-quvvatlashi, ko‘maklashishi, o‘quvchilarning manfaatlarini jamoa manfaatlariga aylanishi, o‘quvchilar orasida o‘zaro ijobiy munosabatlarning shakllanishi bilan ahamiyatlidir. Chunki didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning amaliy faoliyati bo‘lib, o‘quvchilar o‘z bilimi va malakalaridan foydalanadilar. Bu esa o‘quvchilarda fikrni to‘g‘ri aytish, boshqalar fikrini taqdiqlash yoki inkor etish kabi mantiqiy fikrlashga o‘rgatadi, ularda aqliy faoliyat, tafakkur shakllanadi.

Shuningdek, didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning tevarak—atrof; narsa, buyumlar, ularning nimaga ishlatilishi, nomini bilish kabi o‘z shahsiy sifatlarini, tajribalarini amaliy qo‘llash orqalanutqni egallaydi. Shuning uchun ham har bir didaktik o‘yinda o‘yin mazmuni, g‘oyasidan kelib chiqib, unga mos qoidalar, talablar qo‘yiladi.

Masalan, “Ajoyib xaltacha” o‘yining asosiy mazmuni xaltacha ichidagi narsalarniqo‘l bilan olish, uning nomini aytib berish, u ishtirokida gap tuzishdir.



O‘yinning asosiy talabi o‘quvchilarni yakka tartibda, navbati bilan xaltachadan narsa, buyumni olishi, nomini, belgi hususiyatini, nimaga ishlatilishini aytib berishdir. Shu asosda o‘quvchilar so‘z boyligini oshirish, bog‘lanishli nutqini o‘stirish, o‘quvchilarda sensor tarbiyani shakllantirishdan iboratdir. Ya‘ni o‘quvchi xaltacha ichidagi narsa, buyumni qo‘l bilan sezish orqali oladi, ko‘rish, idrok qilish orqali uni tasvirlaydi. Bunda fikrni ifodalovchi gaplarning ma‘no jihatdan bog‘lanishi, tasvirlash va gaplarni to‘g‘ri tuzish kerak. Buning uchun esa o‘quvchilar har bir didaktik o‘yin qoidasini bilishi, o‘yin harakatlarining to‘g‘ri bajarilishi, o‘yin jarayonida o‘quvchilarning o‘zini, do‘stlari faoliyatini nazorat qilishi muhimdir. Demak, didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning o‘yin qoidasini o‘rganib olishi, ularga rioya qilishini talab etadi, o‘quvchilarda mustaqillik, o‘yin jarayonida o‘zini-o‘zi va bir-birlarini nazorat qilishitalab etiladi. O‘yinning natijasi o‘quvchilar va o‘qituvchi tomonidan baholanadi.

Bunda o‘quvchilarning qanday didaktik vazifalarni bajarganligi, o‘yin qanday ma‘naviy xulqni tarbiyalagani, o‘quvchilar o‘rgangan bilim va ko‘nikmalar nazarda tutiladi. O‘yinning natijasi sifatida o‘qituvchi o‘quvchilarni o‘yinda berilgan topshiriqlarini to‘g‘ri bajarilishi masalan, o‘yinga mos topishmoqlar topish, o‘yinda o‘quvchilar erishgan natija, yutuqlarni nazarda tutish lozim.

Адабиётлар:

1. Теория и технология начального языкового образования: учебное пособие для студентов Института педагогики и психологии детства / С.В. Плотникова, В.А. Шуритенкова; Урал. гос. пед. ун-т. – Екатеринбург, 2014. – С. 162–163.

2. Теория и технология начального языкового образования: учебное пособие для студентов Института педагогики и психологии детства / С.В. Плотникова, В.А. Шуритенкова; Урал. гос. пед. ун-т. – Екатеринбург, 2014. – С. 141.

3. Теория и технология начального языкового образования» номли ўқув кўлланмаси. 161-бет.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish jismonan sog‘lom, baquvvat qilib tarbiyalash, ularning jismoniy, aqliy rivojlanishini, tafakkurini o‘stirish vositalaridan biri o‘yin bo‘lib, ulardan rivojlantiruvchi hamda didaktik o‘yinlar to‘g‘risida so‘z boradi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье игры являются одним из средств воспитания молодого поколения физически здоровым и сильным, развития его физического, умственного развития и мышления.

SUMMARY

In this article, games are one of the means of raising the younger generation to be physically healthy and strong, developing their physical, mental development and thinking.